

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-soni)**



**TABIY FANLAR**

**NATURAL SCIENCES**

## **O’QUVCHILARDA DIQQATNI BAHOLASHDA BURDON TESTI VA UNING AHAMIYATI**

*Akbarova Barchinoy Baqiyevna  
Yuldasheva Gulmirahon Adilovna  
Andijon davlat universiteti*

**Anotatsiya** Burdon testi – bu insonning diqqatini sarf qilish qobiliyati, barqarorligi va ish sur’atini baholashga mo‘ljallangan psixologik va fiziologik metod. Sinov jarayonida ishtirokchilarga katta hajmdagi ma’lumot (harflar, raqamlar yoki shakllar) taqdim etilib, ular ma’lum bir elementlarni ajratib olishlari kerak bo‘ladi. Diqqatni baholashda Burdon testi va uning ahamiyati" mavzusida maqola oquvchilarda nazariy tushunchalar, statistik ma'lumotlar va amaliy natijalarga asoslanadi

**Анататция** Тест Бурдона – психолого-физиологический метод, предназначенный для оценки способности человека концентрироваться, устойчивости и скорости работы. В ходе теста участникам предоставляется большой объем информации (буквы, цифры или фигуры), и они должны различать определенные элементы. Статья «Тест Бурдона и его значение в оценке внимания» основана на теоретических положениях, статистических данных и практических результатах

**Abstract** The Bourdon test is a psychological and physiological method designed to assess a person's ability to concentrate, stability and speed of work. During the test, participants are given a large amount of information (letters, numbers or figures), and they must distinguish certain elements. The article "The Bourdon Test and Its Importance in Assessing Attention" is based on theoretical provisions, statistical data and practical results

Diqqat insonning kognitiv jarayonlaridan biri bo‘lib, u atrof-muhitdagi axborotni qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyatini ta’minlaydi. Diqqat barqarorligini o‘lchash uchun psixologiyada va fiziologiyada turli testlar qo‘llaniladi. Shulardan biri Burdon testi bo‘lib, u diqqatning davomiyligi va aniqligini baholashda keng qo‘llanadi.

Burdon testi – bu insonning diqqatini sarf qilish qobiliyati, barqarorligi va ish sur’atini baholashga mo‘ljallangan psixologik metod. Sinov jarayonida ishtirokchilarga katta hajmdagi ma’lumot (harflar, raqamlar yoki shakllar) taqdim etilib, ular ma’lum bir elementlarni ajratib olishlari kerak bo‘ladi. Ushbu maqolada Burdon testining nazariy asoslari, turli yosh guruhlariga moslashtirish usullari va statistik tahlillar haqida so‘z yuritamiz

Burdon testining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagicha

Diqqat barqarorligi – shaxsning uzoq vaqt davomida chalg‘imasdan ishlash qobiliyati. Ish sur’ati – ma’lum vaqt ichida qancha element ajratilganligi. Xatolik darajasi – noto‘g‘ri belgilangan elementlar soni. Tadqiqotda 5-7-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Jami 100 nafar o‘quvchi quyidagi yosh guruhlariga bo‘lindi:

5-sinf – 35 nafar

6-sinf – 30 nafar

7-sinf – 35 nafar

#### O‘tkazilgan test turlari

Tadqiqotda diqqat barqarorligini tekshirish uchun quyidagi usullar qo‘llanildi:

Klassik Burdon testi – tasodifiy harflardan kerakli belgilarni ajratib olish.

Rangli Burdon testi – faqat belgilangan rangdagi elementlarni tanlash.

Ortib boruvchi qiyinchilik usuli – avval oddiy, so‘ng murakkabroq topshiriqlar bajarish.

#### Ish sur’ati va diqqat barqarorligi;

Har bir sinfda testning o‘rtacha bajarilish vaqtini va aniqligi quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

#### Oquvchiarning diqqat barqaroligi bo‘yicha natijalar

Sinf	Ortacha bajarish vaqtini (daqqa)	Ortacha tog’ri javob %	O‘rtacha xatolik
5- sindf	4.8	78%	12%
6- sindf	4.5	85%	9%
7- sindf	4.2	90%	7%

Ko‘rinib turibdiki, yosh o‘sgan sari diqqat barqarorligi oshib, xatolik darajasi kamaymoqda

#### Rangli burdon testining natijalari

Sinf	Ortacha tog’ri javob %	O‘rtacha xatolik
5- sindf	72%	15%
6- sindf	79%	10%
7- sindf	85%	8%

Rang bilan bog‘liq testlar o‘quvchilar uchun qiyinroq bo‘lib, bu ularning diqqatini tarqatib yuborishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Diqqatni rivojlantirish uchun shovqin ichidan so‘zlarni topish yoki murakkablashib boruvchi testlar juda foydali bo‘lishi mumkin.

#### Kunning turli davrlarida o‘quvchilarining Burdon testi natijalari

Stress va charchoqning diqqatga ta’siri kunning turli vaqtlarida o‘quvchilarining Burdon testidagi natijalari qanday o‘zgarishini tahlil natijalar shuni ko‘rsatadi:

Ertalab o‘quvchilar diqqatni yaxshiroq jamlaydi va kamroq xatolik qiladi. Tushdan keyin diqqat susayadi, kechga yaqin esa yanada pasayadi.

Sinf	Ortacha tog’ri javob %	O‘rtacha xatolik
------	------------------------	------------------

Ertalab (8:00- 10:00)	88%	6%
Tush vaqtি 12:00-14:00	82%	10%
Kechga yaqin 16:00-18:00	76%	14%

Kattaroq yoshdagi o‘quvchilar tezroq va aniqroq ishlaydi, kichik yoshdagi bolalar esa ko‘proq xatolik qiladi.

**Amaliy tavsiyalar:**

- ❖ Maktablarda diqqatni rivojlantirish uchun har hafta 5-10 daqiqalik Burdon testlarini o‘tkazish foydalidir.
- ❖ Rangli testlar va matnli testlarni kombinatsiya qilish, o‘quvchilarning diqqatini chalg‘ituvchi omillar ta’sirida ham yaxshiroq ishlashiga yordam beradi.
- ❖ Shovqinli muhitda test o‘tkazish, diqqat barqarorligini real hayot sharoitida ham sinashga yordam beradi.

**ADABIYOTLAR**

- 1.Burdon, B The Study of Attention in Cognitive Psychology. 1920.
- 2.Posner, M. I., & Petersen, S. E. The Attention System of the Human Brain. 1990.
- 3.Treisman, A. Features and Objects in Visual Processing. 1988.